



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

## **"KONSTITUSIYA: ERKINLIK VA FAROVONLIKNING MUSTAHKAM POYDEVORI"**

Mavlonov Feruz Oblakulovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Ijtimoiy fanlar o'qituvchisi

Raximberdiyev Tolibjon To'lqinbek O'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Bakalavryat bosqichi 2-kurs talabasi.

[raximberdiyevtolibjon90@gmail.com](mailto:raximberdiyevtolibjon90@gmail.com)

### **Annotatsiya:**

Mazkur maqolada Konstitutsianing jamiyatda erkinlik va farovonlikni ta'minlashdagi o'rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Unda asosiy e'tibor Konstitutsiya fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashda qanday rol o'ynashi, ijtimoiy adolatni ta'minlashdagi tamoyillari va mamlakat taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasiga qaratiladi. Shuningdek, maqolada O'zbekiston Konstitutsiyasining o'ziga xos xususiyatlari, uning inson huquqlari va demokratik qadriyatlarni rivojlantirishdagi o'rni yoritib beriladi.

**Kalit so'zlar:** Konstitutsiya, huquq va erkinliklar, ijtimoiy adolat, farovon hayot, demokratiya, davlat boshqaruvi, qonun ustuvorligi, O'zbekiston Konstitutsiyasi, inson huquqlari, huquqiy islohotlar.

### **Annotation:**

This article examines the role and significance of the Constitution in ensuring freedom and prosperity in society. The focus is on how the Constitution guarantees citizens' rights and freedoms, its principles in ensuring social justice, and its contribution to the country's development. Additionally, the article highlights the unique features of Uzbekistan's Constitution and its role in promoting human rights and democratic values.

**Keywords:** Constitution, rights and freedoms, social justice, prosperity, democracy, governance, rule of law, Uzbekistan's Constitution, human rights, legal reforms.



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

---

## **Аннотация:**

В данной статье рассматриваются роль и значение Конституции в обеспечении свободы и благополучия в обществе. Основное внимание уделяется тому, как Конституция гарантирует права и свободы граждан, ее принципы в обеспечении социальной справедливости и вклад в развитие страны. Также в статье подчеркиваются уникальные особенности Конституции Узбекистана и ее роль в продвижении прав человека и демократических ценностей.

**Ключевые слова:** Конституция, права и свободы, социальная справедливость, благополучие, демократия, государственное управление, верховенство закона, Конституция Узбекистана, права человека, правовые реформы.

## **Kirish**

O‘zbekiston Respublikasi bugun yangi taraqqiyot bosqichida islohotlar yo‘nalishini kengaytirib, fuqarolar farovonligini ta’minlashga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Bu jarayonda Konstitutsiya davlatning huquqiy asosi sifatida o‘zining muhim o‘rnini saqlab kelmoqda. Konstitutsiya nafaqat davlat boshqaruvining asosiy qoidalarini belgilab beradi, balki jamiyatning barcha qatlamlariga inson huquqlari, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligini ta’minlashga ko‘maklashadi.

Shu bilan birga, jamiyatda huquqiy savodxonlikni oshirish va Konstitutsiyaga bo‘lgan hurmatni shakllantirish davlatning ustuvor vazifalaridan biridir. Chunki har bir fuqaro Konstitutsiyani nafaqat huquqiy kafolatlar manbai sifatida, balki farovon hayotning poydevori sifatida qabul qilishi lozim. Mamlakatimiz Konstitutsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari va xalqaro huquqiy tamoyillarga mosligi, fuqarolarning hayot sifatini oshirishda ko‘rsatgan amaliy ta’siri uni nafaqat milliy qadriyat, balki jamiyat barqarorligini mustahkamlaydigan kuchli hujjat sifatida namoyon etmoqda. Aynan shu nuqtai nazardan, Konstitutsianing jamiyat hayotidagi o‘rni va roli, uning davlat va fuqarolar o‘rtasidagi munosabatlarni muvozanatda saqlashdagi ahamiyati haqida keng tushunchalar berish bugungi kunda dolzarb masalaga



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

aylanmoqda. Ushbu maqolada ana shu masalalar chuqur tahlil qilinadi va Konstitutsianing farovon hayot garovi ekanligi asoslanadi.

## **Adabiyotlar tahlili**

Shavkat Mirziyoyevning 2008 yil 1 maydagি farmoni. Mirziyoyev Shavkatning “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 yilligiga bag‘ishlangan tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi farmoni mamlakatda inson huquqlari sohasidagi islohotlar va ularning huquqiy asoslarini belgilashda muhim hujjat bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu farmonda inson huquqlari oliy qadriyat sifatida e’tirof etilgan va uning jamiyatdagi har bir fuqaroning asosiy huquqiy kafolati sifatida ta’milanishi zarurligi ta’kidlangan. Farmon orqali O‘zbekistonning xalqaro huquq tizimiga, shuningdek, inson huquqlarini himoya qilishga bo‘lgan yondashuvi hamda Konstitutsianing bu jarayondagi o‘rni aniq ifodalangan. Mirziyoyev farmonida Konstitutsianing inson huquqlarini kafolatlashda qanday muhim rol o‘ynashi, shuningdek, mamlakatning huquqiy va siyosiy taraqqiyotiga qo‘sghan hissasi haqida so‘z yuritilgan.

A. Rahimovning “Konstitutsiya inson huquq va erkinliklarining kafolati” nomli maqolasi “Xalq so‘zi” ro‘znomasida chop etilgan bo‘lib, unda Konstitutsianing inson huquqlarini himoya qilishdagi roli va uning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy tizimni tartibga solishdagi ahamiyati yoritilgan. Rahimov maqolasida, Konstitutsianing fuqarolar huquq va erkinliklarini kafolatlashda qanday muhim rol o‘ynashi, shuningdek, uning jamiyatni demokratlashtirish, davlatni huquqiy mustahkamlash va ijtimoiy adolatni ta’minlashdagi o‘rni haqida chuqur tahlil keltirilgan. U, shuningdek, Konstitutsianing mamlakatimizdagi siyosiy va iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qilishini ta’kidladi. Ushbu maqola Konstitutsianing inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishdagi o‘rni, shuningdek, mamlakatda demokratik qadriyatlarni rivojlantirishdagi roli haqida muhim tushunchalar beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik Palatasining rasmiy nashri “Xalq so‘zi” ro‘znomasida chop etilgan “Konstitutsiya - farovon hayotimiz va taraqqiyotning asosiy poydevori” nomli maqolada Konstitutsianing mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar va farovonlikni ta’minlashdagi o‘rni keng tahlil



# E CONF SERIES



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

qilinadi. Maqola, Konstitutsianing nafaqat huquqiy asoslarni ta'minlash, balki mamlakatdagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlikni mustahkamlashda qanday asosiy poydevor vazifasini bajarishi haqida so'z yuritadi. Maqolada ijtimoiy adolatni ta'minlash va fuqarolarning huquqiy madaniyatini oshirish yo'llari ko'rsatilgan. Bu manba mamlakatda demokratik qadriyatlarning rivojlanishi, huquqiy jamiyatni shakllantirish va davlat boshqaruvini takomillashtirishdagi Konstitutsianing o'rni haqida muhim axborot beradi.

### Tadqiqot metodologiyasi va empirik tahlil.

Konstitutsianing milliy huquq tizimidagi o'rni, fuqarolar huquqlarini himoya qilishdagi roli va huquqiy normativlar tahlil qilinadi. Bu metod yordamida Konstitutsianing davlat boshqaruviga, jamiyatdagi huquqiy va siyosiy tizimlarga ta'siri o'rganiladi. Shuningdek, Konstitutsianing mamlakatdagi siyosiy barqarorlikni mustahkamlash va demokratik qadriyatlarni rivojlantirishdagi o'rni tahlil etiladi. Bu usul orqali davlat boshqaruvini yanada takomillashtirish va fuqarolarni siyosiy hayotda faol ishtirok etishga undashdagi Konstitutsianing rolini o'rganish maqsad qilinadi. empirik tahlil orqali amaliyotda Konstitutsianing qanday amalga oshirilayotganini aniqlash maqsadida so'rovlар va intervylular o'tkaziladi. Bu jarayon orqali O'zbekiston fuqarolarining Konstitutsiya va qonunlarga bo'lgan munosabati, huquqiy madaniyati, shuningdek, Konstitutsianing ijtimoiy va iqtisodiy islohotlarga ta'siri o'rganiladi. Tadqiqotda hukumat organlarining roli, fuqarolarning huquqlari va ijtimoiy adolatni ta'minlashda Konstitutsianing amaliyotga tatbiq etilish darajasi baholanadi.

### Natijalar.

Bugun O'zbekiston Respublikasi yangi taraqqiyot va muvaffaqiyatlar yo'lidan dadil qadam tashlamoqda. Barcha sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalambor, xalq farovonligi, fuqarolarning munosib turmush tarzi va sharoitlarini ta'minlashga qaratilgan. Mamlakatimiz Asosiy qonunida insonning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat ekanligi belgilab qo'yilgan. Odamlarda adolat va qonun ustuvorligiga ishonch bor. Asosiysi, mamlakatimiz fuqarolarining hayat va ijtimoiy jarayonlardagi muammolarni hal



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

etishda ishtirok etishga intilishi kundan-kunga ortib bormoqda. Shu bilan birga, amaldagi qonunlar to‘laqonli faoliyat yuritishi, shaxs, jamiyat va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni to‘laqonli amalga oshirishga xizmat qilishi, bir so‘z bilan aytganda, islohotlarni amaliyotga tatbiq etishi uchun fuqarolar huquqiy ongi va huquqiy ongiga ega bo‘lishi zarur. Barcha fuqarolarda Konstitutsiya va qonunlarni hurmat qilish, ularga rioya qilish zarurati tuyg‘usi shakllangandagina jamiyat hayoti va turmush tarzi o‘zgaradi. Shu boisdan ham fuqarolarga Konstitutsianing milliy huquq tizimidagi o‘rni va roli haqida ma’lumot beruvchi tadbirlarni tashkil etish zarur. Bundan tashqari, o‘quvchilarining asosiy qonun - O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi haqidagi bilimlarini kengaytirish, huquqiy savodxonligini oshirish juda muhim. Tegishli soha mutaxassislari ruhsat bergen taqdirda, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ommaviy axborot vositalaridan foydalangan holda jamiyat taraqqiyotining mustahkam tayanchi va huquqiy kafolati, Vatan mustaqilligining yorqin timsoli ekanini alohida ta’kidlash lozim. Shuningdek, uning qabul qilinishi mamlakat suverenitetining muhim bosqichlaridan biriga aylanganini isbotlovchi video va qisqa metrajli filmlarni o‘zbek xalqiga taqdim etish zarur. Asosiy qonun siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy sohalarda keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirish, inson huquq va erkinliklarini, jamiyatda tinchlik va totuvlikni ta’minalashga zamin yaratdi. U ijtimoiy munosabatlarning izchil rivojlanishi uchun mustahkam huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi va fuqarolar, jamiyat va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar vektorini belgilaydi. Konstitutsiyaviy huquqning asosini amaldagi Konstitutsianing o‘zi tashkil etadi. Konstitutsianing har qanday milliy huquq tizimidagi o‘rni va roli asosiy va muhim hisoblanadi. Bundan tashqari, har bir davlatning o‘z Konstitutsiyasi mavjud. Shuni ta’kidlash kerakki, barcha mamlakatlar uchun yagona universal konstitutsiyaviy model mavjud emas va bo‘lishi ham mumkin emas. Har bir davlat o‘zining konstitutsiyaviy rivojlanish yo‘liga ega. Bu borada mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi ham bundan mustasno emas.

Yangi Konstitutsianing Muqaddimasida quyidagicha ta’kidlanadi: “Biz, O‘zbekistonning yagona xalqi, inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligimizni ochiq-oydin e’lon qilgan holda, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

birdamlik g‘oyalariga sadoqatimizni namoyon qilamiz. Inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati biz uchun eng oliy qadriyatdir. Bu prinsiplarni hisobga olib, insonparvar demokratik davlatni, ochiq va adolatli jamiyatni qurish borasida hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi mas’uliyatni anglab, mamlakatimizning boy tarixiy tajribasi, buyuk ajdodlarimizning ilmiy, madaniy va ma’naviy merosiga tayanib, o‘zining tabiiy resurslarini to‘g‘ri boshqarishga va atrof-muhitni himoya qilishga ahd qilamiz. Shu bilan birga, xalqaro huquqning umumtan olgan prinsiplariga asoslanib, O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, ayniqsa, qo‘shti davlatlar bilan do’stona aloqalarini mustahkamlashni, tinchlik va hamkorlikni rivojlantirishni maqsad qilgan holda, fuqarolarimizning farovon hayotini ta’minlashni, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni mustahkamlashni niyat qilgan holda, ushbu Konstitutsiyani qabul qilamiz va e’lon qilamiz” deb bayon qilingan.

Konstitutsiyamiz o‘zining insonparvarlik g‘oyalariga bo‘lgan sodiqligi bilan ajralib turadi. Unda Ota-onalar va ularga o‘xshash shaxslar o‘z farzandlarining tarbiyasi, ta’limi, sog‘lom va to‘laqonli kamol topishi uchun mas’uliyatli bo‘lishlari belgilangan. Davlat esa, o‘z navbatida, yetim bolalar va ota-onasiz qolgan bolalarni boqish, tarbiyalash, ta’lim olishlarini ta’minlash, ularning sog‘lom va kamol topishlarini rag‘batlantirishga majburdir. Xususan, Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan hozirgi kunda yoshlarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Bu Konstitutsiyada ham ko‘rsatilgan, ya’ni “Davlat fuqarolarning bandligini ta’minlash, ishsizlikni kamaytirish va kambag‘allikni qisqartirishni ta’minlaydi. Shuningdek, fuqarolarning kasbiy tayyorgarligini oshirish va qayta tayyorlashni tashkil etadi, bu jarayonni rag‘batlantiradi”.

Davlatning Konstitutsiyaga ega bo‘lishi mustaqil demokratik huquqiy davlatning taraqqiyotining asosiy poydevori va sharti bo‘lib, jahon miqyosida bu prinsip keng e’tirof etilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganidan keyingi davrda uning norma va qoidalari hayotga izchil tatbiq etilib, mamlakatimizda keng miqyosda salmoqli yutuqlarga erishildi. Konstitutsiyamizning ta’siri bilan fuqarolar o‘rtasidagi totuvlik va millatlararo hamjihatlik ta’mindi, turmush darjasи yildan-yilga yaxshilandi, ijtimoiy va madaniy rivojlanish, ta’lim, fan va sport sohalarida yuksak natijalarga erishildi.



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

Yoshlar, kelajak avlod bo‘lgan vakillarimiz, Konstitutsiyaning tarixini, tamoyillarini va uning yurtimizda ifodalangan suverenitet va demokratiya g‘oyalarini o‘rganishmoqda.

Konstitutsiyada mustahkamlab qo‘yilgan inson huquq va majburiyatları, ularning amalga oshirilishini ta’minlash borasida belgilangan moddalarning samarasi nihoyatida yosh avlod vakillari Konstitutsiyaga oid savollarga dadil va o‘z zukkoligi bilan javob berish imkoniga ega bo‘lishmoqda. Shuningdek, ular saylov qonunchiligi, davlat boshqaruvi va boshqa muhim masalalar bo‘yicha fikr bildirish huquqiga ega. Bu huquq faqat yoshlar bilan cheklanmaydi, balki butun o‘zbekistonliklar uchun ham mavjud.

Konstitutsiyada belgilab qo‘yilgan tamoyillar va qoidalar, uzoqni ko‘zlagan maqsadlar va taraqqiyot strategiyasi, barcha sohalarda tub islohotlarni amalga oshirishni belgilaydi. Bu islohotlar O‘zbekistonni yangi marralar sari undagan ishonchli va hal qiluvchi omil bo‘lib, mamlakat fuqarolarining faxrlanishi uchun asos yaratdi. “Umumiy lug‘at” ham jamiyatni liberallashtirish, demokratlashtirish, iqtisodiyotning barqaror o‘sishini ta’minlash va aholi farovonligini oshirishga yo‘naltirilgan islohotlar samarasidir. O‘tgan yillar davomida amalga oshirilgan ishlar, makroiqtisodiy mutanosiblikka erishish va respublika yangilanishi borasida ulkan yutuqlarni ko‘rsatdi.

Konstitutsiya mustaqil va suveren davlat barpo etish, ko‘p ukladli bozor iqtisodiyoti sharoitida xususiy mulk ustuvorligini ta’minlash, uni himoya qilish kafolatlarini belgilash, shuningdek fuqarolik jamiyatini shakllantirishning huquqiy va qonunchilik asoslarini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Shu asosda, Konstitutsiya tufayli inson huquq va erkinliklari oliy qadriyatga aylandi, bu esa mamlakatimizda huquqiy adolat va farovonlikning mustahkam poydevorini yaratdi.

Amaliyot shuni ko‘rsatdiki, mamlakat hayotining barcha jahbalarini isloh qilish va demokratlashtirish jarayoni bir martalik emas, balki Konstitutsiyaning tamoyillari va qoidalarini hayotga tatbiq etishga yo‘naltirilgan uzlusiz jarayondir. Bu jarayon yurtimizning yanada rivojlanishiga, erkinligi va mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi. O‘zbekistonning asosiy maqsadi nafaqat demokratik huquqiy davlatni barpo etish, balki adolatli jamiyat yaratishdir, bu esa Asosiy qonunda aniq qayd etilgan. Konstitutsiyaning mazmuni insonlarning munosib turmush sharoitlarini



# E CONF SERIES



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

ta'minlash, ijtimoiy adolat tamoyillarini amalga oshirishdan iborat bo'lib, milliy qonunchilikning barcha sohalarining asosi sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, yuqorida belgilangan maqsadlarning izchil davom etishiga mos ravishda, Konstitutsiyaga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish jarayoni boshlanmoqda. Bularning barchasi xalq farovonligini oshirish, fuqarolarning yashash sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini kengaytirish, ularning turmush darajasini yaxshilash va yoshlarning zamonaviy bilim olish imkoniyatlarini yaratish maqsadida amalga oshirilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar tez va samarali amalga oshirilishi, fuqarolarning hayot sifatini yuksaltirishga, jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

### Xulosa va munozara

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi o'zining tarixiy ahamiyatiga ega bo'lib, davlatimizni rivojlantirishning asosiy poydevori sifatida xizmat qiladi. Ushbu huquqiy hujjat, nafaqat milliy qonunchilikni shakllantirishda, balki jamiyatni liberallashtirish, demokratlashtirish, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Konstitutsiya bilan belgilangan tamoyillar, davlatning ijtimoiy adolatni ta'minlashga, inson huquqlarini himoya qilishga va fuqarolarni teng imkoniyatlar bilan ta'minlashga intilishining asosiy yunalishlarini ko'rsatadi. Konstitutsianing muhim jihatlaridan biri shundaki, u jamiyatning barcha qatlamlari uchun teng huquqlarni ta'minlashga qaratilgan. Xususan, ta'lim, sog'liqni saqlash, mehnat huquqlari kabi masalalar Konstitutsiyada o'z aksini topgan va ular davlat tomonidan ishonchli ravishda himoya qilinadi. Ayniqsa, yoshlar va xotin-qizlarga nisbatan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlik va imkoniyatlar kengayishi Konstitutsianing insonparvarlik va adolatli jamiyat qurishga qaratilgan yondashuvining yaqqol ko'rsatkichi bo'lib, bugungi kunda bu tamoyillar amaliyotga muvaffaqiyatli tafbiq etilmoqda.

Bundan tashqari, Konstitutsianing o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish jarayonlari davom etmoqda. Bu jarayonlarning barchasi mamlakatda fuqarolarning farovonligini oshirish, huquq va erkinliklarni yanada kengaytirish, jamiyatning demokratik tuzilishini mustahkamlashga qaratilgan. O'zbekistonning jahon hamjamiatiga integratsiyasi, xalqaro huquq tamoyillariga mos keluvchi



# E CONF SERIES



## International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

qonunchilik tizimi, qonun ustuvorligi vaadolat tamoyillariga asoslanishi davlatning zamonaviy demokratik, huquqiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shuningdek, O'zbekiston Konstitutsiyasi, mamlakatning iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy farovonligini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi. Fuqarolarning bandligini ta'minlash, kambag'allikni qisqartirish, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarini isloh qilishda Konstitutsiya belgilagan yo'nalishlar o'z samarasini berishga qaratilgan. Bu, o'z navbatida, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga olib keladi va fuqarolarning turmush sharoitlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Konstitutsiya orqali amalga oshirilgan islohotlar jamiyatning barcha sohalarida rivojlanish va yangilanishga olib keladi, bu esa kelajakda yana-da ijobiy natijalar keltiradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Konstitutsiyasi nafaqat davlatni qonuniy jihatdan tartibga solibgina qolmay, balki fuqarolarni ijtimoiy adolat, tenglik, huquq va erkinliklarni ta'minlash, shuningdek, jamiyatda mustahkam barqarorlik va farovonlikni saqlash uchun zarur bo'lgan asosiy huquqiy hujjat hisoblanadi. Konstitutsiyaning amalda tatbiq etilishi, uning ruhiga mos tarzda, mamlakatni demokratiya, erkinlik va tenglikni mustahkamlashga intilish orqali, O'zbekistonning kelajakdagi rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi. Bu jarayonning muvaffaqiyati, shubhasiz, fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning huquqlarini himoya qilish va milliy qadriyatlarni hurmat qilishga qaratilgan harakatlarga bog'liqdir.

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi.
2. Mirziyoev Shavkat – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 1 maydagi “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 60 3. yilligiga bag'ishlangan tadbirlar dasturi to'g'risida'gi farmoni.
3. Xaitov Aktam - Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi Spikeri o'rinosi ,
4. O'z.Lider fraksiyasi rahbari - “Konstitutsiya - farovon hayotimiz taraqqiyotining asosiy poydevori” - lider.uz /uz/ ro'znomasi maqolasi bosh sahifa . 09.12.2020 yil № 1030.
5. A.Rahimov - “Konstitutsiya inson huquq va erkinliklarining kafolati” “Xalq



# E CONF SERIES



**International Conference on Educational Discoveries and Humanities**

**Hosted online from Moscow, Russia**

Website: [econfseries.com](http://econfseries.com)

16<sup>th</sup> January, 2025

---

So'zi" ro'znomasidagi maqolasi. 09.12.2021 yil. 2- bet.

6. Abdikarimova Sayyora – O'z. Oliy Majlis Senati a'zosi - “Konstitutsiya taraqqiyotimiz va farovonligimiz kafolati” – O'z. Ru. En. Constitution. Uz/uz/pages/ , bosh sahifa.

7. “Konstitutsiya - farovon hayotimiz va taraqqiyotning asosiy poydevori”. - O'z.Res. Oliy Majlis Qonunchilik Palatasi - “Xalq so'zi” ro'znomasi , maqola , 24.11.2021 yil № 926. 2- bet.